XALQ DEPUTATLARI BULUNG‘UR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 21-fevral VII-8-28-7-93-K/25 Bulung‘ur tumani

Xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Bulung‘ur tumanining 2024 yilgi mahalliy budjetning tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-93-133-7-93-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 148-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi PF-108-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida va bu boradagi tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 29-yanvardagi 01/32/75-sonli xatiga asosan,xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Bulung‘ur tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetning tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-93-133-7-93-K/23-sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Quyidagidalar:

xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Bulung‘ur tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetning tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-93-133-7-93-K/23-sonli qarori 1-ilovasiga 1-ilovaga muvofiq;

xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Bulung‘ur tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetning tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-93-133-7-93-K/23-sonli qarori 2-ilovasiga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin;

3. Bulung‘ur tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag‘larini boshqa hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Bulung‘ur tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (T.Uljaev) tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

Shuningdek, mahalliy budjetlar rejasiga ta’sir etuvchi hukumat qarorlari bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borishni ta’minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  ASTONOV SAMANDAR MUSTAFOKULOVICH

Xalq deputatlari Bulung‘ur tumani
Kengashining
2025-yil 21-fevraldagi
VII-8-28-7-93-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Bulung‘ur tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘mda)

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI DAROMADLAR		**119 402 797**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	31 845 000
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	10 776 500
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 106 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	17 712 000
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	1 651 000
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	5 251 762
7	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	625 000
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 229 100
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	18 229 000
10	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	5 294 000
11	Korxonalar aylanmasidan soliq	10 840 000
12	Yig‘imlar	3 768 000
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	75 435

Xalq deputatlari Bulung‘ur tumani
Kengashining
2025-yil 21-fevraldagi
VII-8-28-7-93-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Bulung‘ur tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

(ming so‘mda)

T/R	Koʻrsatkichlar nomi	Jami
JAMI XARAJATLAR		**250 335 540**
1	Maktabgacha va maktab ta'limi boʻlimi	58 401 259
2	Sogʻliqni saqlash	98 504 686
3	Madaniyat boʻlimi	6 504 885
4	Yoshlar siyosati va sport boʻlimi	9 227 219
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	4 488 840
6	Irrigatsiya bo‘limi	1 995 964
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 298 345
8	Kambag‘alikkni qisqartirish va bandlik bo‘limi	5 749 339
9	Soliq inspeksiyasi	5 280 852
10	Tuman hokimligi	57 884 151

Xalq deputatlari Bulung‘ur tumani
Kengashining
2025-yil 21-fevraldagi
VII-8-28-7-93-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Bulung‘ur tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag‘larini boshqa hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha o‘zgartirishlar

(ming so‘mda)

№	Ko‘rsatkichlar	Ko‘payishga	Kamayishga
Xarajatlar miqdori, Jami		**2 304 789**	**-2 304 789**
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi		-2 123 232
2.	Sog‘liqni saqlash bo‘limi	17 276	
3.	Madaniyat bo‘limi		-110 975
4.	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi		-39 896
5.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	990 170	
6.	Irrigatsiya bo‘limi		-29 394
7.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	342 429	
8.	Kambag‘alikkni qisqartirish va banklik bo‘limi	22 815	
9.	Soliq inspeksiyasi		-1 291
10.	Tuman hokimligi	932 099	